

## **Akademik Kengash majlisi qisqacha mazmuni (Bayonnoma No. 3)**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik Kengashi majlisi 2025-yil 23-oktabr kuni rektor raisligida, prorektorlar, dekanlar va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari ishtirokida o'tkazildi. Unda bitiruvchilar bilan ishlash, professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, ilmiy unvonlar berish, magistratura rivoji, talabalar tanlovlari va doktorantura masalalari ko'rib chiqildi.

### **Bitiruvchilar bilan ishlash va karyera rivoji**

Bitiruvchilar bilan ishlash va karyera rivoji bo'yicha hisobot tinglandi va ma'qullandi. Qaror qilindi:

1. "UWED Alumni Platform" platformasini va amaliyot dasturlarini ishlab chiqish;
2. UWED Bitiruvchilar assotsiatsiyasini tashkil etish;
3. Talabalar uchun soft skills rivojlantirish dasturlarini joriy etish;
4. "UWED Job Fest" karyera tadbirini tashkil etish;
5. Ish beruvchilar va hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

### **Ilmiy unvonlar berish**

Professor-o'qituvchilarga ilmiy unvonlar berish masalasi ko'rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Prof. Imanova D.I. ga professor ilmiy unvoni berish tavsiyasi tasdiqlansin;
2. Nomzodning milliy malaka talablariga muvofiqligi tasdiqlansin;
3. Hujjatlar belgilangan muddatda Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin.

### **Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash (KPI)**

KPI tizimi natijalari ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Qaror qilindi:

1. KPI natijalari tasdiqlansin;
2. Rag'batlantiruvchi ustamalar o'z vaqtida to'lanishi ta'minlansin;
3. Akademik samaradorlik ko'rsatkichlari ustidan nazorat kuchaytirilsin.

### **Magistratura dasturlarini rivojlantirish**

Magistratura ta'limini takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Magistratura o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga mos ravishda modernizatsiya qilish;

2. Qabul jarayonlarini takomillashtirish va yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;
3. 2026/2027 o'quv yili uchun xalqaro darajadagi akademik dasturlarni tayyorlash.

### **Talabalar tanlovi natijalari**

“Islohotlar bilimdoni” tanlovi natijalari ko‘rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Universitet bosqichi g‘oliblari tasdiqlansin;
2. Eng yaxshi talabalar respublika bosqichiga tavsiya etilsin;
3. 1-o‘rin g‘olibining hujjatlari tashkiliy qo‘mitaga yuborilsin.

### **Doktorantning Prezident stipendiyasiga nomzod**

Doktorantning Prezident stipendiyasiga nomzodi ko‘rib chiqildi. Qaror qilindi:

1. Dissertatsiya tadqiqoti bajarilishi tasdiqlansin;
2. Hujjatlar Oliy ta'lim vazirligiga yuborilsin.